

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH:HUQUQIY CHORA TADBIRLAR

Xolnizozov Madaminbek Xamzayevich

O‘zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Mehnat va Ijtimoiy Munosabatlar akademiyasi

Annotatsiya:Ushbu maqolaning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy chora-tadbirlar o'rganish,milliy va xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar berishdan iboratdir. Taqdqiqot huquqiy tahlil, solishtirish tahlil va empirik taqdqiqot usullariga asoslangan.; O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik bazasi o'rganib ,ularning samaradorligini baholanish kerak. Tadqiqot natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy asoslarni mustahkamlash davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda korrupsion jinoyatlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish muhimligi aniqlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Huquqiy islohotlar, jamoatchilik nazorati va xalqaro hamkorlik korrupsiyani kamaytirishda muhim rol o'ynaydi,. Shu bilan birga korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish va ta'lim tizimida shu boradagi targ'ibotni kuchaytirish ham dozlarb masala hisoblanadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik institutlari, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, qonunchilik, fuqarolik jamiyati, korrupsiyaga qarshi, shaffoflik, huquqiy islohotlar.

KIRISH

Korrupsiya har qanday davlatning o'sishiga jiddiy to'sqinlik qiluvchi sabablardan biri bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishlarni susaytiradi. Huquqiy tizimga bo'lgan fuqarolar ishonchini so'ndiradi va ijtimoiy qatlam uchun bo'lgan tenglik tamoyilini yo'q qiladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini o'stirish, har qanday amaliy chora-tadbirlarni joriy etish muhimdir.Ushbu maqolaning asosiy qismida korrupsiyaning asosiy ildizlari, ular qayerdan paydo bo'lishi va ularning to'xtata oladigan qonunlarni mavjudligi shuning bilan birgalikda ushbu qonunlarni isloh qilish hamda rivojlantirish choralarining ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

“Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun biz faqat qonunlarni mustahkamlash emas,balki jamoatchilikni,fuqarolarni,xususan , yoshlarni korrupsiyaning zarali oqibatlarini tushuntirish orqali ma'daniyatni shakllantirishimiz kerak.”

Sh.M.Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasining Korupsiyaga qarshi Kurashihs to‘g‘risidagi qonuning 3-moddasida korrupsiya bo‘yicha asosiy tushunchalar berilgan. Ya‘ni korrupsiya-shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, huddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik- korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish. Demak biz korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini isloh qilishni o‘rganishdan avval uning jamiyat uchun qanchalik xavfli ekanligini tushunib olishimiz zarur. Bunday zararlardan biri iqtisodiy zarar-korrupsiya iqtisodiy resurslarni uning noto‘g‘ri taqsimlanishiga, investitsiyalarning kamayishiga yirik loyiha va dasturlarni amalga oshirishda samaradorlikning pasayishiga olib ketadi va bu o‘z-o‘zidan ishsizlik va turg‘unlik o‘ssishiga olib keladi; Adolatning buzilishi-Korrupsiya qonunlarni va normative-huquqiy tizimni chetlab o‘tishga sabab bo‘ladi, shuning bilan birgalikda sudlar va huquqni muhofaza qilish organlarnin ishonchsizligini pasaytiradi. Bu jamiyatda adolatsizlikni va notenglikni kuchaytiradi; Siyosiy beqarorlik-Korrupsiya siyosiy tizimning samaradorligini susaytiradi, hukumatning xalq ishonchini yo‘qotishga olib keladi. Bu esa siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi va ijtimoiy huzursizlikni kuchaytiradi; Ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarining zarari-Korrupsiya ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarida resurslarining notog‘ri taqsimlanishiga sifatli xizmatlar ko‘rsatilishning sustlashishiga olib keladi, bu esa jamiyatning umumiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi; Xalqaro munosabatlar-korrupsiya xalqaro miqyosda mamlakatning imidjini buzadi va iqtisodiy hamkorlikda to‘siqlar yaratadi. Bu investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtiradi va mamlakatni xalqaro tashkilotlarda ishonchini yo‘qtishiga olib keladi. Shuning uchun biz jamiyatimizda ushbu achinarli holatlarni yuz berishini oldini olish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini rivojlantirishimiz zarur. Buning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha strategiya va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda uning ijro etilishini ta‘minlash zarur; Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish; Mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta‘minlaydi, shuning bilan birgalikda, korupsiyaga oid xavf-hatarlar yuqoyi bo‘lgan sih joylari hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o‘rganadi; BMT korrupsiyaga qarshi konvensiya talablarining bajarilishini taminlash, shuningdek ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o‘rninoshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish; Fuqarolik jamoiyati institutlari va OAV va boshqa nodavlat sektor vakillarining korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini o‘rnatishdagi faoliyatiga ko‘maklashish kabi tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bularning barchasini amalga oshirishda bizda mavjud bo‘lgan kodekslar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalarda ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha ishlash va ularni takomillashtirish yordam beradi

XULOSA

Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun samarali chora-tadbirlar davlat va jamiyatda adolatni ta’minlash, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni saqlash, hamda ijtimoiy qatlamning ishonchini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun qat’iy qonunlarni joriy etish, shaffoflikni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ta’lim va madaniyat orqali hallolikni targ’ib qilish zarur. Xalqaro hamkorlik va monitoring tizimlarini rivojlantirish korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshiradi. Faqatgina keng qamrovli yondashuv orqali korrupsiyani kamaytirish va jamiyatda barqaror o’zgarishlarni ta’minlash mumkin.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish- bu nafaqat qonunlarni kuchaytirish, balki jamiyatning har bir a’zosini adolatga bo’lgan ishonchini qayta tiklashdir. Bizning maqsadimiz- davlat organlarining shaffoligini ta’minlash, fuqarolarni haqqoniylik va halollik asosida boshqarishdir.”

Sh.M.Mirziyoyev.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish to‘grisidagi qonun
2. www.yurkitob.uz
3. www.lexuz.uz
4. O‘zbekiston konferensiyalar to‘plami 2019-yil 30-may